

OIV INFEKSIYASI: TURLI IJTIMOIIY-IQTISODIIY KONTEKSTLARDI XAVF OMILLARI

Shukurova Sevara Normuminovna

Guliston Davlat Universiteti

Ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

+998972774800 e-mail sevara4800@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19213066>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada OIV infeksiyasining tarqalishiga ta'sir etuvchi asosiy ijtimoiy-iqtisodiy omillar tahlil qilinadi. Tadqiqot rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar kesimida olib borilib, kambag'allik, ta'lim darajasi, gender tengsizligi, migratsiya va sog'liqni saqlash tizimi imkoniyatlari kabi omillarning OIV xavfiga ta'siri o'rganiladi. Shuningdek, stigma va diskriminatsiyaning kasallik profilaktikasi hamda davolash jarayonlariga salbiy ta'siri yoritiladi. Natijada, turli ijtimoiy kontekstlarda OIVning tarqalish mexanizmlari farqlanishi, ammo ayrim universal xavf omillari mavjudligi aniqlanadi. Tadqiqot natijalari OIV profilaktikasi bo'yicha samarali ijtimoiy siyosat ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

KIRISH

Globalashuv jarayoni insoniyat hayotining barcha jabhalariga, jumladan sog'liqni saqlash tizimi va jamoat salomatligiga ham chuqur ta'sir ko'rsatmoqda. Shu nuqtayi nazardan, OIV (inson immunitet tanqisligi virusi) infeksiyasi endilikda faqat tibbiy kasallik sifatida emas, balki ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy omillar bilan uzviy bog'liq bo'lgan murakkab ijtimoiy hodisa sifatida qaralmoqda. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) va UNAIDS ma'lumotlariga ko'ra, virusning tarqalish sur'ati mamlakatning iqtisodiy taraqqiyot darajasi, aholining ta'lim va tibbiy madaniyati, shuningdek, davlatning profilaktika siyosati bilan bevosita bog'liqdir¹.

ASOSIIY QISM

Rivojlangan mamlakatlarda OIV infeksiyasining ijtimoiy sabablari, asosan, xulq-atvor, migratsion oqimlar, jinsiy orientatsiya, ijtimoiy stigma va shaxsiy mas'uliyat darajasi bilan izohlanadi. Bunday mamlakatlarda sog'liqni saqlash tizimi rivojlangan bo'lishiga qaramay, ayrim ijtimoiy toifadagi guruhlar – masalan, jinsiy ozchiliklar, in'eksion narkotik moddalar iste'molchilari va migratsion qatlam vakillari – yuqori xavf zonalarida qolmoqda. Bu holatning ildizi ko'pincha ijtimoiy izolyatsiya, diskriminatsiya va stigma bilan bog'liq.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda muammo, asosan, qashshoqlik, sog'liqni saqlash infratuzilmasining zaifligi, ta'lim darajasining pastligi, jinsiy va gender tengsizlik, diniy va madaniy to'siqlar, hamda migratsiya oqibatida yuzaga kelgan ijtimoiy beqarorlik bilan bog'liq. Aholining ko'pchilik qismi sog'liqni saqlash xizmatlaridan muntazam foydalana olmaydi, jinsiy tarbiya bo'yicha bilim etishmovchiligi esa profilaktika samaradorligini pasaytiradi².

Rivojlangan mamlakatlarda OIV yuqishining muhim sababi – xavfli jinsiy xulq-atvordir. Ayniqsa, LGBTIQ+ jamoalari orasida yuqori xavfli aloqalar, prezervativdan foydalanmaslik va in'eksion moddalar iste'moli infektsiyaning tarqalishini qo'llab-quvvatlaydi. Bu holat insonlarning shaxsiy erkinligi va ijtimoiy xulqiy mas'uliyati o'rtasidagi nomutanosiblikdan dalolat beradi. Xalqaro mehnat migratsiyasi, global turizm va urbanizatsiya jarayonlari OIV

¹(https://unaids.org/sites/default/files/media_asset/global-AIDS-strategy-2021-2026

² Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST). UNAIDS Global HIV Report 2023. — Geneva, 2023

infektsiyasining yangi yuqish zanjirlarini shakllantirmoqda³. Rivojlangan mamlakatlarda internet, ijtimoiy tarmoqlar va onlayn tanishuv platformalarining ommalashuvi OIV tarqalishiga bilvosita ta'sir etmoqda. Shu bilan birga, rivojlangan mamlakatlarda OIV ustidan nazorat nisbatan samarali yo'lga qo'yilgan. Sog'liqni saqlash tizimining bepul, anonim va qulay xizmati infektsiyani erta aniqlash va doimiy davolash imkonini beradi. Masalan, Skandinaviya mamlakatlarida OIV bilan yashovchilarning 95 foizdan ortig'i antiretrovirus terapiya (ART) bilan qamrab olingan bo'lib, bu global o'rtacha ko'rsatkichdan ancha yuqori hisoblanadi (UNAIDS, 2023).

Rivojlanayotgan mamlakatlarda, xususan Afrika, Osiyo va Lotin Amerikasi davlatlarida, OIV (HIV) infektsiyasining tarqalishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy omillar o'ta murakkab va ko'p qatlamli xususiyatga ega. Bu omillar faqat tibbiy yoki biologik emas, balki iqtisodiy, madaniy va gender munosabatlar tizimi bilan chambarchas bog'liqdir.

Birinchi navbatda, qashshoqlik va iqtisodiy tengsizlik masalasi alohida ahamiyatga ega.

Ikkinchi muhim omil – ta'lim darajasining pastligi.

Shu bilan birga, gender tengsizligi ham epidemiyaning muhim ijtimoiy sabablaridan biri hisoblanadi. Ko'plab mamlakatlarda ayollar ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan himoyasiz bo'lib, o'z sog'lig'i va reproduktiv huquqlarini mustaqil amalga oshirish imkoniyatiga ega emaslar.

Madaniy va diniy to'siqlar ham ahamiyatli omillardan sanaladi. Jinsiy hayot, reproduktiv salomatlik va OIV infektsiyasi haqida ochiq muloqotning yo'qligi.

Bundan tashqari, migratsiya jarayonlari va qurolli mojarolar ham infektsiya tarqalishini kuchaytiradi. Iqtisodiy qiyinchiliklar sabab mehnat migratsiyasi, urush yoki qochqinlik holatlarida aholi tibbiy xizmatlardan uzilib qoladi. Bu esa profilaktika va nazorat mexanizmlarining samaradorligini pasaytiradi.

Masalan, Sub-Saxara Afrikasida OIV bilan yashovchi aholining taxminan 60 foizini ayollar tashkil etadi. Bu ko'rsatkich gender tengsizligi, ijtimoiy zaiflik va sog'liqni saqlash tizimidagi cheklovlar infektsiyaning asosiy ijtimoiy sabablari ekanini yaqqol ifodalaydi. Demak, rivojlanayotgan mamlakatlarda OIVga qarshi samarali kurash faqat tibbiy choralar bilan emas, balki ijtimoiy adolat, ta'lim, gender tengligi va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan kompleks siyosat orqali amalga oshirilishi zarur.

UNAIDS ma'lumotlariga ko'ra, Afrika va Karib hududlarida OIV bilan bog'liq holatlar ko'p bo'lsa-da, jon boshiga sarflanadigan mablag' ham yuqori. Bu hududlarda xalqaro yordamning katta ulushi mavjud (rasm5.). Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyoda esa OIV tarqalishining sabablari ko'p jihatdan in'eksion giyohvand moddalar, muhojirlik va ma'lumot tanqisligi bilan bog'liq.

XULOSA

O'zbekiston sharoitida ham aholi orasida OIV infektsiyasiga oid bilimi va xabardorlik darajasi, profilaktika xizmatlariga ishonch, xavf guruhlariga kiruvchi aholi bilan ishlash mexanizmi shunga o'xshash ijtimoiy muammolarni taqozo qiladi. Jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, OIV infektsiyasiga qarshi kurashishda samarali siyosiy yondashuvlar inson huquqlarini ta'minlash, ijtimoiy himoyani kuchaytirish, ta'lim va tibbiy xizmatlarga teng etishuvni kafolatlashga asoslanishi lozim. Ushbu kompleks yondashuv faqat tibbiy intervensiya bilan cheklanib qolmay, balki fuqarolik jamiyati institutlari, nodavlat tashkilotlar, axborot

³ UNAIDS. 95-95-95 Strategy to End the HIV Epidemic by 2030. — New York, 2020.

siyosati va jamoatchilik ongi orqali qo'llab-quvvatlanishi kerak. Kambag'allikni kamaytirish, gender tengligini ta'minlash, xavf guruhlarini diskriminatsiyadan himoya qilish, axborotga etishuvni kengaytirish, reproduktiv huquqlarni himoya qilish kabi mexanizmlar jahon amaliyotida OIV tarqalishiga qarshi kurashda samarali deb topilgan.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. UNAIDS. *95-95-95 Strategy to End the HIV Epidemic by 2030*. — New York, 2020.
2. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST). *UNAIDS Global HIV Report 2023*. — Geneva, 2023.
3. Shukurova Sevara Normo'minova. (2024). 2030 YIL - OIV EPIDEMIYASISIZ HAYOT SARI. *TADQIQOTLAR.UZ*, 37(1), 110–114. Retrieved from <https://tadqiqotlar.uz/new/article/view/2795>.
4. Shukurova, S. N. (2024). O'ZBEKISTONDA OIV INFEKSIYASI PROFLAKTIKASINING TIBBIY VA IJTIMOY AHAMIYATI. *Academic research in educational sciences*, (3), 765-768.
5. https://unaids.org/sites/default/files/media_asset/global-AIDS-strategy-2021-2026
6. Shukurova, S. (2023). AIDS PREVENTION AND HEALTH AMONG STUDENTS AND YOUTHS LIFESTYLE PROMOTION FACTORS. *International Conference on Multidisciplinary Research*, 1(2), 116–119. Retrieved from <https://aidlix.com/index.php/sg/article/view/1143>